

Odamboyeva Mohichehra San’atbek qizi

2006-yil 1-iyun sanasida Xorazm viloyati Shovot tumanida ziyoli oilada dunyoga kelgan. O‘zi yashagan hududdagi o‘rta maktabni 2023-yilda tugallangan va shu yili Urganch davlat universitetiga o‘qishga qabul qilingan. U yoshligidan sportga qiziqishi tufayli sportning dzyu-do turi bo‘yicha bir qancha sovrinlar sohibasi. Ammo shunday bo‘lishiga qaramasdan, hozirda Filologiya fakulteti talabasi. U universitet hayotida ham birmuncha yutuqlarga erishdi. Hozirda Urganch davlat universiteti Filologiya fakultetida adabiyot kafedrasi o‘qituvchisi Salomat Matkarimova bilan birgalikda "Navoiy lirikasida talmeh" mavzusi ostida ilmiy faoliyat yuritmoqda. U ijoddan ham orqada qolmadi. Shu paytgacha she'riyat olamida ham bir qancha muvaffaqiyatlarga erishgan. Quyida uning ijod namunalaridan keltirib o‘tamiz.

Iftixorim

Faxr dilda, g‘urur dilda, Beruniydek bobom bor,
Bu dunyoning beshigida Al – Xorazmiy betakror!
Amir Temur qilichida porlagay mangu viqor,
Men shu yurtga bitta voris qizingizning o‘ziman!

Osmono‘par qo‘shminori ,Registon binosi bor,
Buxorodan nur taratgan tabibi – Sinosi bor,
Navoiyga navo bergan musaffo havosi bor,
Men shu yurtga bitta voris qizingizning o‘ziman!

Islomiyat olamining Buxoriysi yagona,
Ulug‘bekdan qolgan meros biz uchundir durdona,
Faxr ila aytadirman shu so‘zimni mardona,
Men shu yurtga bitta voris qizingizning o‘ziman!

Alpomishdek alp bo‘lmoqlik har o‘g‘loning niyati,
Kimki yomon- tushar boshga Axrimanning qismati,
Bo‘lgay mudom O‘zbekiston bu dunyoning hayrati,
Men shu yurtga bitta voris qizingizning o‘ziman

Tilim-faxrim!

O’rxun daryo mavjlaridan sado bergan,
Enasoyning dardlaridan nido bergan.
Senla bobom yuragiga sirdosh tilim,
Bobom tili, momom tili, o'zbek tilim!

Bitdi doston, oldi maqom u Xos Hojib,
Saodatga eltuvchi yo'l unda vojib.
Buyuk yo'ldan bordi senla mening elim,
Bobom tili, momom tili, o'zbek tilim!

Koshg‘ariyning lug'atiga bezak bo'lding,
Navoiyning ardog'ida beshak to'lding.
Faxr bilan osmon bo'lar mening ko‘nglim,
Bobom tili, momom tili, o'zbek tilim!

Usmon qalbin tarjimoni bo‘lganingda,
Qodiriyla dushmanlardan kulganingda ,
Sho'rlikkinam bir cho‘g‘ bo'lding tilim- tilim,
Bobom tili, momom tili, o‘zbek tilim!

Qora bulut to’solmagay quyosh yuzin,
Mustaqillik ochdi yana buloq ko‘zin.
Ko‘ksimdadir qulluq qilib mening qo‘lim,
Bobom tili, momom tili, o'zbek tilim!